

**MOLIYA-BANK TIZIMINI INNOVATSION BOSHQARISH MASALALARI**

*Toshkent moliya instituti talabasi*

**Zokirova Diyora Iqboljon qizi**

*Toshkent moliya instituti talabasi*

**Olqarova Zarina Nosir qizi**

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda bank-moliya tizimini rivojlantirish, ayniqsa, ushbu sohaga zamonaviy IT-texnologiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi jarayonlar 2020-yildan boshlab yanada tezlashtirildi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganidek, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10- 15 yil orqada qolmoqda. 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi". Hozirda har bir bank to‘lov va bank xizmatlaridan foydalanishni masofadan turib amalga oshirish, ya’ni mobil ilovalardan foydalanishni oson va qulay shaklga keltirishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Bu esa, naqd pulga qaraganda bank kartalaridan foydalanish kundan-kunga har tomonlama samarali va qulay bo‘lib borayotganini anglatadi. Ta’kidlash joizki, yurtimizda banklarning masofaviy xizmatlarini ko‘rsatish sifati va ko‘lamini kengaytirishda Prezidentimizning 2018-yil 9-yanvardagi "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Farmoni dasturi amalda to‘lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan, masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish hamda yangi texnologiyalarni tatbiq etish asosiy vazifa etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida so‘nggi yillarda aynan shunday zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash sohada birmuncha qulaylik va yangiliklar yaratayotgani shundan dalolat beradi. Internet tarmog‘idan foydalanayotgan aholi soni ham o‘tgan yillarga nisbatan keskin ko‘paymoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo‘llanish doirasi kengayib, tadbirkorlar o‘rtasida keng ommalashib, tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2021 yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, 14 571 096 mln. foydalanuvchini tashkil etmoqda. Shulardan, 13 748 596 mln. foydalanuvchi jismoniy shaxslar hamda 822 500 ming yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to‘g‘ri kelmoqda. Qolaversa, 2012-yilda bu ko‘rsatkich 56 735 ming. foydalanuvchini tashkil etgan edi. 2016- yilda 1 061 022 mln. foydalanuvchi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanar edi. Bularning 979 522 ming foydalanuvchi jismoniy shaxslar hamda 81 500 ming yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri kelar edi. Xususan, oxirgi besh yil davomida 13,7 martaga oshdi. Bu esa

masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimi zimmasiga yanada katta vazifalar yuklaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, masofaviy bank xizmatlari fuqarolar uchun bir muncha yengilliklarni olib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro standartlarni qo'llagan holda texnologik platformani modernizatsiyalash natijasida plastik karta egalari elektron tijorat SMS xabarnomalari, pul o'tkazmalari va shu kabi boshqa zamonaviy xizmat turlarini joriy etish imkoniyati yaratildi. Boshqacha aytganda, texnologik platforma mobil aloqa yoki internet mavjud bo'lgan har qanday joyda plastik kartochka bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlari - ulardan foydalanadigan mijozlarning huquqiy maqomiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarga mo'ljallangan masofaviy bank xizmatlariga tavsiflanishi mumkin. Hozirda yuridik shaxslarga "Korporativ internet-banking", "Mobil-banking" va "SMS-banking" kabi zamonaviy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Yuridik shaxslar uchun "Internet banking" xizmati ko'lamini kengaytirish ham doimiy e'tiborda turibdi. Banklarning amalga kiritilgan ta'riflariga muvofiq, "Korporativ internet banking" xizmatiga ulanish hamda "e-key" xavfsizlik kalitlarini taqdim etish bepul. Oylik abonent to'lovi esa eng kam ish haqining 20 foiz miqdorida belgilangan. "Korporativ internet-banking" xizmatidan foydalangan mijozlar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin:

- Bank muassasasiga kelmagan holda, to'lovlarni masofadan, uydan yoki ofisdan bajarish;
- Mijozga zarur bo'lgan kunlik, oylik va yillik hisobotlarni (htms, xls) chiqarish hamda chop etish;
- Ko'p foydalanadigan ma'lumotlar, sana, valyutalar kursi va bank amaliyot kuni va tizimi ma'lumotlarini onlayn kuzatib borish;
- To'lov topshiriqnomalarining saqlangan tayyor shablonlaridan foydalanib, to'lovlarni tezkor ravishda bajarish.

Shu bilan bir qatorda, "Bank-mijoz", "Internet-banking", "Mobil-banking" va "SMS-banking" xizmatlari ham yuqori o'sishga ega bo'lmoqda. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini bank sektoriga jalb etish hamda bank daromadlilikini oshirish va xizmat turlarini ko'paytirish maqsadida mamlakatimiz banklarida "Internet-banking", "Bank mijoz", "SMS Banking" va "Mobil-banking", ular uchun mo'ljallangan "Click", "MBANK", "UzCard", "UPAY", "Payme" ilovalari yanada rivojlantirilmoqda hamda ular ko'magida uyali aloqa operatorlari, kommunal to'lovlar, internet provayderlar xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish, savdo-servis korxonalariga pul mablag'larini o'tkazish bevosita bank hisobidan internet-magazinlardan onlayn xaridlarni amalga oshirish, kartadan-kartaga mablag' o'tkazish imkoniyatlari yaratildi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bularning barchasi mijozlar bank uchun emas, balki bank mijozlar uchun tamoyilini masofadan turib ham ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.